

## 1.4. LABORATORIYADA XAVFSIZLIK QOIDALARI

*Ilmiy tadqiqotlar qayerda o'tkaziladi? Ular faqat laboratoriyalarda amalga oshiriladimi?*

O'simlik va hayvonlarni o'rganishga qaratilgan ayrim tadqiqotlar ochiq joylarda, ya'ni dala sharoitida o'tkazilishi mumkin. Tadqiqotlarning aksariyati laboratoriyalarda amalga oshiriladi. Tadqiqot o'tkazish qiziqarli jarayon bo'lishiga qaramay, xavfsizlikni unutmaslik kerak. O'zingiz va atrofigizdagi insonlarning xavfsizligini ta'minlash uchun laboratoriyada muayyan xavfsizlik qoidalariga rioya qilish shart (1.1-jadval).

**1.1-jadval.** Xavfsizlik qoidalarari.

| Amal qilinadi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | Taqiqlanadi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none"><li>Tajribani boshlashdan avval yo'riqnoma bilan tanishish.</li><li>Ishni bajarish davomida o'qituvchi ko'rsatmalariga qat'iy rioya qiling.</li><li>Laboratoriya jihozlarining ishchi holatda ekaniga ishonch hosil qiling.</li><li>Jihozlar va kimyoviy moddalardan ehtiyotkorlik bilan to'g'ri foydalaning.</li><li>Yuqori haroratgacha qizdiruvchi jihozlardan foydalanganda kiyimingizni tartibga keltiring va sochingizni yig'ing.</li><li>Tozalikka rioya qiling. Foydalanilgan jihozlarni tozalang.</li><li>Ish yakunida stolingizni tartibga keltiring. Laboratoriya jihozlarini maxsus joylarda saqlang.</li><li>Laboratoriya ishi yakunlangach, xonani shamollating va qo'lingizni sovunlab yuving.</li></ul> | <ul style="list-style-type: none"><li>O'qituvchi ruxsatisiz laboratoriya xonasiga kirmang.</li><li>O'qituvchi ruxsatisiz hech qanday sinov va tajribalarni o'tkazmang.</li><li>O'tkir tig'li va kesuvchi asboblari (skalpel, qaychi, preparatsiya ignasi)ni ishlatganda tutqichidan ushlang, uchli qismini o'zingiz yoki boshqalarga qaratmang.</li><li>Probirka yoki kolba og'zini hech kim yo'q tomonga qarating. Tajriba vaqtida kimyoviy moddalarni hidlamang, tatib ko'rmang.</li><li>Zaharlanish va allergik reaksiyalarning oldini olish uchun notanish o'simlik va zamburug'larni hidlamang, tatib ko'rmang.</li><li>Laboratoriyada oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari iste'mol qilmang, turli o'yinlar o'ynamang.</li><li>Laboratoriyadagi elektr tarmog'i va u bilan bog'liq jihozlarga tegmang.</li></ul> |





## Topshiriqni bajaring

Olimning fotosuratiga qarang (1.17-rasm). U tajriba o'tkazish jarayonida qanday xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan?

**1.17-rasm.**  
Laboratoriyada xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.



**1.2-jadval.** Xavfsizlik belgilari.

| Belgi | Belgi turi            | Belgi nimani bildiradi?    | Belgi | Belgi turi            | Belgi nimani bildiradi?         |
|-------|-----------------------|----------------------------|-------|-----------------------|---------------------------------|
|       | Buyuruvchi belgi      | Himoya ko'zoynagini taqing |       | Ogohlantiruvchi belgi | Diqqat! Xavfli, zaharli modda!  |
|       | Buyuruvchi belgi      | Himoya qo'lqopini kiying   |       | Ogohlantiruvchi belgi | Diqqat! Tez alanganuvchi modda! |
|       | Ogohlantiruvchi belgi | Diqqat! Xavf!              |       | Ogohlantiruvchi belgi | Biologik xavf!                  |



## Asosiy jihatlar

- Laboratoriyada xavfsizlik qoidalariga rioya qilish zarur.
- Xavfsizlik belgilarini tanish va ularning mohiyatini tushunish muhim.